



Jismoniy shaxslardan chet el valyutasini sotib olish va sotish tartibi

Rezident va norezident - jismoniy shaxslardan chet el valyutasini sotib olish

Jismoniy shaxslardan chet el valyutasi cheklanmagan miqdorda sotib olinadi. Bunda, 09002-shakldagi ma'lumotnoma ikki nusxada rasmiylashtiriladi.

Chet el valyutasini ayirboshlash operatsiyalari bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravari miqdoriga teng bo'lgan yoki undan oshgan hollarda, jismoniy shaxslardan shaxsini tasdiqlovchi hujjat va norezidentlardan pasport talab etiladi.

Rezident va norezident - jismoniy shaxslarning xalqaro to'lov kartalaridagi chet el valyutasi naqd milliy valyutaga ayirboshlab beriladi. Ularga valyuta sotib olinganligini tasdiqlovchi 09002-shakldagi ma'lumotnomaning bir nusxasi va terminal chekinging asl nusxasi beriladi.

Norezident - jismoniy shaxslarga chet el valyutasini sotish

Norezidentlarga chet el valyutasini sotishda 09002-shakldagi ma'lumotnomaning nusxasi, bankomat cheki yoki xalqaro joriy operatsiyalar amalga oshirilishi natijasida respublika hududida so'm mablag'larining qonuniy manbalardan olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda amalga oshiriladi.

Chet el valyutasi norezidentlarga sotilganda, chet el valyutasi sotilganligini tasdiqlovchi 09007-shakldagi ma'lumotnomaning bir nusxasi norezidentga beriladi.